



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL 2024 CAPITAL
TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

LABOUR LABOR ECONOMICS LIFE EXPECTANCY

LIFE EXPECTANCY

2024 yil 4-son

HUMAN CAPITAL

Volume 10, Issue 4, 2024

QUALITY OF EDUCATION

HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
№ 4-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



www.laboreconomics.uz

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
I.A.Bakiyeva		
S.M.Kurbanbayeva		
S.S.Amirdjanova	<i>Prioryetetnye napravleniya zanyosti naseleniya i organizatsionno-ekonomicheskie mehanizmy ego realizatsii.....</i>	20-33

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	34-50
A.M.Saidahmadov		
F.O.Odilova	<i>Kasb-xunaqtayt tashkilotlari qurilishi kashfiy kunnikmalari oshiriishga ta'sisir koursatuvchi omillar</i>	51-60
T.N.Azimov	<i>Rol' vyschego obrazovaniya v obespechenii ustoychivogo rosta chelovecheskogo kapitala</i>	61-78
T.B.Shomurodov	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash</i>	79-86

INSON TARAQQIYOTI

Sh.D.Akishova	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
X.X.Yaxshimuratova	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
Z.K.Murtozayeva	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
Ch.O'.Ro'zimurodova	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
T.B.Shomurodov	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

O.A.Norboev	<i>Mulkiy munosabatlar mechanizmini takomillaشتiriш.....</i>	131-141
--------------------	--	---------

T.B.Shomurodov

Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida..... 142-150

Z.T.Jumanova

MIGRATSIYA
Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish..... 151-161

M.F.Abdumannofova

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH
Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari 162-171

G.R.Kuziyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash 172-180

G.R.Kuziyeva

Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash 181-188

S.K.Mansurov

TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'rni va ahamiyati 189-203

S.U.Ismailova

Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике 204-213

Sh.Sh.Ataganova

Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish 214-221

D.B.Fayziyeva

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish 222-232

Sh.U.Karimova

Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish 233-238

G.R.Kuziyeva

O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsiyalashdagi rolini baholash... 239-247

Sh.S.Sayfutdinov

Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari 248-254

D.T.Alijonova**B.A.Xonturayev**

GENDER TENGLIGI

Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indekslari asosida baholash 255-270

MUNOSIB MEHNAT

S.B.G'oyipnazarov

Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes... 271-281



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИСОН КАПИТАЛИ**
ISSN: 3030-3117
<https://laboreconomics.uz/>



**DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR VA ASOSIY O'ZGARISHLAR**

Ro'zimurodova Charos O'rал qizi

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi assistenti
e-mail: abdulakhatovacharos@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a128

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat xaridlari tizimining hozirgi holati, uning samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va dolzarb o'zgarishlar, shuningdek, maqolada davlat xaridlari tizimidagi eng muhim yangiliklar, jumladan, raqamli platformalarning tatbiq etilishi, onlayn-auksionlar va blokcheyn texnologiyalari asosida ishlaydigan tizimlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning natijalari davlat xaridlari samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy tejamkorlik, shaffoflik va raqobat muhitini mustahkamlashni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: davlat xaridi, shaffoflik, raqobatbardoshlik, elektron xarid, yashil xarid, korrupsiyaga qarshi kurashish, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, hadli kelishuv.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСЗАКУПОК: СОВРЕМЕННЫЕ
ТЕНДЕНЦИИ И ОСНОВНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ**

Рузимуродова Чарос Урал кизи

Ассистент кафедры «Финансы и финансовые технологии»

Аннотация. В данной статье рассмотрено современное состояние системы государственных закупок, реформы и текущие изменения, реализованные для повышения ее эффективности, а также проведен анализ наиболее важных нововведений в системе государственных закупок, включая внедрение цифровых платформ в режиме онлайн. будут проводиться аукционы и системы, основанные на технологиях блокчейна. Результаты исследования направлены на повышение эффективности государственных закупок и направлены на усиление экономической эффективности, прозрачности и конкурентной среды.

Ключевые слова: государственные закупки, прозрачность, конкурентоспособность, электронные закупки, «зеленые» закупки, борьба с коррупцией, экономическая эффективность, инновационные технологии, договорное соглашение.

**IMPROVING THE PUBLIC PROCUREMENT SYSTEM: MODERN TRENDS
AND MAJOR CHANGES**

Ruzimurodova Charos Ural kizi

Assistant of the "Finance and Financial Technologies" Department

Abstract. This article analyzes the current state of the public procurement system, the reforms and current developments being implemented to improve its efficiency, as well as the most important innovations in the public procurement system, including the introduction of digital platforms, online auctions and systems based on blockchain technologies. The results of the study are aimed at increasing the efficiency of public procurement and are aimed at strengthening the economic efficiency, transparency and competitive environment.

Keywords: public procurement, transparency, competitiveness, electronic procurement, green procurement, combating corruption, economic efficiency, innovative technologies, final agreement.

Kirish

So'nggi yillarda davlat xaridlari tizimi iqtisodiyotda samaradorlikka erishish va moliyaviy resurslarni oqilona boshqarishning muhim vositalaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiq bo'lib kelmoqda. Ushbu tizim davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, resurslarni tejash va davlat buyurtmalarini shaffof amalga oshirish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. Davlat xaridlari – bu davlat yoki uning tashkilotlari tomonidan mahsulotlar, xizmatlar yoki ishlarni sotib olish jarayonidir. Bu xaridlар davlat ehtiyojlarini qondirish va fuqarolar uchun xizmatlar taqdim etishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Davlat xaridlari odatda davlat byudjetidan moliyalashtiriladi va ularning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik va davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashdir.

Ammo amaliyotda ushbu sohada turli muammolar, jumladan, byurokratiya, korrupsiya xavfi va shaffoflikning yetarli emasligi kabi masalalar mavjud.

Mazkur maqola aynan davlat xaridi tizimining bugungi kundagi holati, unda bo'layotgan muhim o'zgarishlar va ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha samarali yondashuvlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi davlat xaridlari tizimini yanada shaffof, samarador vaadolatli qilish uchun zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, davlat xaridlari tizimini isloh qilish nafaqat davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishga, balki xalqaro maydonda mamlakat iqtisodiy imidjini oshirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot ob'ekti sifatida davlat xaridlari tizimi va unga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaliy jarayonlar tanlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat xaridlari faoliyati va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish, parametrlarni amaliy tahlil qilish jihatlari N.A.Akimov, S.Kapnauxova, D.J.Kloss, V.A.Knysha, L.Sh.Lozovskiy, G.I.Maptynenko, V.V.Melnikova, N.V.Nestepovich, B.A.Paizberg, T.A.Podkina, Yu.A.Tixomipova, S.I.Chepnyx, Y.I.Feldman, E.V.Shadrina, V.V. Yashchenko kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq

etilgan [1]. O’zbekistonda bu masala A.A.Alimov, E.X.Maxmudov, G.G.Nazarova, M.F.Ochilov, N.X.Jumaev, U.Buxxonov, J.Atamuradov, T.Eshnazarov, D.Pulatovlar va boshqalarning ilmiy asarlarida o’z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida davlat xaridlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishning xorij tajribalari tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, sintez, iqtisodiy-statistik, induksiya va deduksiya, guruhash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Davlat xaridlari jarayonining asosiy bosqichlari:

1. Talabni aniqlash: davlat tashkilotlari o’z ehtiyojlarini aniqlaydi va xarid qilish uchun zarur bo’lgan mahsulot yoki xizmatlar ro’yxatini tuzadi.

2. Rejalashtirish va byudjetni tasdiqlash: xarid qilish uchun mablag’ byudjetdan ajratiladi va xaridlar rejalar tasdiqlanadi.

1-jadval

Davlat xaridlarining asosiy tamoyillari

Tamoyil	Ta'rifi	Amalga oshirish vositalari	Kutilayotgan natijalar
Shaffoflik	Xarid jarayonlari va qaror qabul qilish haqida ma'lumotlarning barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiqligi.	Elektron davlat xaridlari platformasi, ochiq ma'lumotlar bazasi yaratish.	Korrupsiya xavfining kamayishi, ishonchli va adolatli jarayonlarning ta'minlanishi.
Raqobatbardoshlik	Xarid jarayonida barcha ishtirokchilar uchun teng va adolatli imkoniyatlarni ta'minlash.	Aniq va bir xil talablarni belgilash, ochiq tender tizimini joriy etish.	Bozor mexanizmlarining samaradorligi oshishi, eng yaxshi takliflarni tanlash imkoniyati.
Moliyaviy samaradorlik	Davlat byudjeti mablag’laridan maqsadli, oqilona va iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish.	Xaridlarni narxnavoning asoslanishi, sifat va narx o’rtasidagi muvozanatni ta'minlash.	Davlat resurslarining tejab ishlatalishi, iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish.
Qonunchilikka muvofiqlik	Davlat xaridlarini amalga oshirishda amaldagi qonun va normativ hujjatlarga to’liq rioya qilish.	Normativ-huquqiy baza ishlab chiqish, huquqni muhofaza qilish organlari nazorati.	Qonunbuzarliklarning oldini olish, xarid jarayonlarida ishonchlilik va barqarorlik.

3. Tender e'lon qilish: shartnoma berish jarayoni odatda tender yoki ochiq savdo orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha manfaatdor tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

4. Tanlov va baholash: tashkilotlar o'z takliflarini taqdim etadi. Takliflar texnik va moliyaviy jihatdan baholanadi.

5. Shartnoma tuzish: g'olib tanlov asosida aniqlanadi va u bilan shartnoma tuziladi.

6. Shartnoma bajarilishi va nazorat: sotib olingan mahsulot yoki xizmatlar sifatiga va shartnoma shartlariga mos ravishda taqdim etiladi.

Davlat xaridlariga oid O'zbekistondagi qonunchilik: O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Ushbu qonun davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi va qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, davlat xaridlarini elektron tizim orqali boshqarish amaliyoti keng tarqalgan bo'lib, bu tizim shaffoflikni oshirishga yordam beradi [2].

2-jadval O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan asosiy o'zgarishlar va ularning natijalarini tizimli tarzda ko'rsatib beradi. Ushbu choralar nafaqat davlat xaridlarining samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, korrupsiyaning oldini olishga va biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiladi [3].

Ushbu yangiliklar davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilish, sohada raqobatni kuchaytirish va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan

Davlat xaridlari jarayonlarida elektron tizim va shaffoflikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlar quyidagi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Shartnomalarni ochiq muhokama qilish:

- 2024-yilning oktyabridan boshlab, davlat xaridlari doirasidagi shartnomalar (to'g'ridan-to'g'ri tender natijalariga asoslangan) maxsus axborot portallariga joylashtiriladi.

- To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar kamida bir kun davomida ochiq muhokamaga qo'yiladi.

- Tender savdolari natijalariga oid bayonnomalar esa ikki kun davomida jamoatchilik tomonidan ko'rib chiqiladi.

2. Elektron xaridlar tizimining kengayishi. Ya'ni, elektron xaridlar jarayoniga yangi funksiyalar qo'shildi:

- Yagona yetkazib beruvchilar reyestri tuzilmoqda. Ushbu reyestrga bozorda texnik jihatdan murakkab va muqobil bo'limgan tovarlarni yetkazib beruvchilar kiritiladi.

- Elektron tizimda yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlarga davlat buyurtmalari to'g'risida xabarnomalar avtomatik ravishda yetkaziladi.

- Nizo va kelishmovchiliklarni hal qilishda elektron tizim operatorlari

yordam beradi.

2-jadval

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va undagi ochiqlikni oshirish maqsadida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilish jarayonidagi yangiliklar

Yo'nalish	Tavsif	Amalga oshirish vositalari	Kutilayotgan natijalar
Elektron xaridlar va shaffoflik	Davlat xaridlarida elektron tizimlardan foydalanishni kengaytirish va ochiqlikni ta'minlash.	Davlat xaridlari maxsus portalini rivojlantirish, ochiq ma'lumotlarni e'lon qilish.	Jamoatchilik nazorati kuchayishi, korrupsiya xavfining kamayishi.
Tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar	Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun davlat xaridlari kiring imkoniyatlarni kengaytirish.	Elektron do'konlar, auksion savdolarida zaxira g'olib mexanizmini joriy qilish.	Biznes muhitining rivojlanishi, kichik biznesning davlat xaridlarida faolligini oshirish.
Barqaror rivojlanish va "yashil xaridlar"	Xaridlarni ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror asosda amalga oshirish.	"Yashil xaridlar" bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish.	Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikka erishish.
Korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish	Xaridlar jarayonida qonunbuzarlik va korrupsiyani kamaytirish choralarini ko'rish.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, ichki va tashqi nazorat tizimlarini joriy qilish.	Qonunbuzarliklarning kamayishi, xaridlar jarayonining shaffofligi va adolatliligi ortishi.

3. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish:

Shartnomalarni muhokama qilish jamoatchilikka ochiq bo'lishi, tanlovnинг adolatli va shaffof o'tishiga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali sohada korrupsiyani kamaytirish maqsad qilingan.

4. Tender savdolari ochiqligini oshirish:

Tenderda faqat bir ishtirokchi qatnashsa, davlat xarid qilish jarayoni takroriy e'lon qilinadi. Takroriy tenderda yana shu ishtirokchi qatnashgan taqdirda, u bilan shartnoma tuzishga ruxsat beriladi. Bu jarayonning ochiq va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Tadbirkorlik subyektlariga davlat xaridlari jarayonida qulayliklar yaratish uchun bir qancha muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu o'zgarishlar tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish va davlat buyurtmalariga yanada faolroq jalb qilishni maqsad qilgan.

1. Zaxira g'olib mexanizmi joriy etilishi:

Elektron do'kon va auksion savdolarida zaxira g'olib (birinchi o'rindan keyingi ishtirokchi) aniqlanadi. Agar asosiy g'olib shartnomani imzolashdan bosh tortsa, zaxira g'olib bilan shartnomaga tuziladi. Bu mexanizm natijasida xaridlar to'xtab qolmaydi va jarayon samarali davom ettiriladi.

2. Davlat xaridlarida ishtirok etishni soddalashtirish:

Yagona axborot tizimi orqali ishtirok etish uchun tadbirkorlardan minimal hujjatlar talab qilinadi. Bu tadbirkorlik subyektlarining davlat buyurtmalariga kirishini soddalashtiradi.

3. Elektron tizimda imkoniyatlarning kengaytirilishi:

- Elektron xaridlar portalida tadbirkorlar uchun maxsus xabarnomalar va tender haqida ma'lumot yetkazib berish xizmatlari yo'lga qo'yilgan.
- Tadbirkorlik subyektlari o'z takliflarini taqdim etishda vaqt va mablag'ni tejash imkoniga ega bo'lishmoqda.

4. Yagona reestr va qulay ro'yxatga olish tizimi:

Tadbirkorlar yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilib, davlat buyurtmalarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi. Bu reyestr tadbirkorlarning malakasi va imkoniyatlarini oldindan baholashga yordam beradi.

5. Raqobat muhitining kuchayishi

Davlat xaridlari bo'yicha qabul qilingan o'zgarishlar kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining raqobatda ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, ularga tenderlarda ishtirok etish uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish ustida ish olib borilmoqda.

Barqaror rivojlanish va "yashil xaridlar" O'zbekiston davlat xaridlari tizimini ekologik va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli qilish maqsadida kiritilgan yangi strategik yo'nalishlardan biridir. Bu o'zgarishlar asosan quyidagilarni qamrab oladi:

1. "Yashil xaridlar" tamoyili ekologik toza va energiyani tejovchi mahsulotlarni afzal ko'rishni ko'zda tutadi:

- Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish: Xarid qilish jarayonida ekologik jihatdan zararli bo'limgan yoki minimal ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar tanlanadi.

2. Barqaror mahsulotlar: Tiklanadigan energiya manbalari va qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan mahsulotlar ustun qo'yiladi.

2. Davlat xaridlari jarayonida barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Energiya samaradorligi: Davlat xaridlari energetik tejamkor texnologiyalar va uskunalarga qaratiladi.

• Ijtimoiy javobgarlik: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va mehnat sharoitlari me'yorlarga muvofiq bo'lgan korxonalar bilan ishlashni rag'batlantirish.

3. Elektron tizimda "yashil xaridlar" imkoniyati

- Davlat xaridlari elektron tizimida ekologik toza mahsulotlar uchun alohida belgilangan mezonlar joriy qilinmoqda.
- Xarid jarayonida mahsulotlarning ekologik standartlarga muvofiqligi maxsus baholanadi.

4. Xalqaro hamkorlik va tajriba:

Ushbu tizimni joriy etishda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning tajribasidan foydalanilmoqda. Ushbu yondashuv O'zbekistonni global ekologik barqaror rivojlanish strategiyalariga moslashtirishga yordam beradi.

O'zbekiston davlat xaridlari tizimida korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha qator muhim choralar qabul qilinmoqda. Ushbu o'zgarishlar davlat mablag'laridan oqilona foydalanish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan.

1. Shaffoflikni oshirish. Davlat xaridlarining barcha bosqichlarini ochiq qilish orqali jamoatchilik nazorati kuchaytirilmoqda:

- Shartnomalar va xarid jarayonlarining elektron tizimda e'lon qilinishi: Bu tadbir xarid jarayonida sir saqlash yoki noqonuniy kelishuvlarning oldini olishga xizmat qiladi.

• Ochiq muhokama va baholash tizimi: Xarid natijalari jamoatchilik tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin, bu korruption elementlarni kamaytiradi.

2. Xaridlar bo'yicha raqobatni oshirish

- Tenderlarda qatnashuvchilar sonini ko'paytirish va ularga teng imkoniyat yaratish orqali maxsus kelishuvlarning oldi olinadi.

• Yagona yetkazib beruvchilar reyestri joriy etilib, qatnashchilarning sifatini tekshirish uchun qo'shimcha mexanizmlar yaratildi.

3. Korrupsiya xavfini kamaytirish uchun mexanizmlar

- Avtomatlashtirilgan jarayonlar: Davlat xaridlarida inson omilini cheklash maqsadida elektron tizimlardan keng foydalanilmoqda.

• Real vaqt rejimida monitoring qilish: Xaridlar natijalari va ular bilan bog'liq hujjatlar real vaqt rejimida kuzatiladi, bu esa noqonuniy faoliyatni tez aniqlashga imkon beradi.

4. Davlat nazorati va monitoring

- Maxsus komissiyalar tashkil etildi: Bu komissiyalar xaridlar jarayonini nazorat qiladi va qonunbuzarliklarni o'z vaqtida bartaraf etadi.

• Jazo choralar kuchaytirildi: Qonunbuzarlik aniqlangan hollarda mas'ul shaxslar uchun og'irroq jazo choralar belgilandi.

5. Xalqaro tajriba asosida ishlov berish

Korrupsiya va huquqbuzarliklarni kamaytirish bo'yicha xalqaro amaliyotlardan foydalanilmoqda. Jahon banki va boshqa tashkilotlar yordamida davlat xaridlari tizimi takomillashtirildi.

Shuni qo’shimcha qilish lozimki O’zbekiston Respublikasi Senatining ellik yettinchi yalpi majlisida “Davlat xaridlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish haqida”gi Qonun ko’rib chiqildi.

Qonunda ikki bosqichli davlat xaridlari, kichik qiymatdagi xarid uchun soddalashtirilgan tartib, markazlashgan davlat xaridlari va hadli kelishuv kabi yangi mexanizmlar joriy qilinishi nazarda tutilgan.

Davlat xaridlarida “barqarorlik” prinsipi bilan to’ldirilib, davlat buyurtmachilar qisqa, o’rta va uzoq muddatli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni hisobga olgan holda barqaror davlat xaridlarini amalga oshirishi nazarda tutilmoqda.

Davlat buyurtmachisi, shu jumladan byudjet buyurtmachisi, zaruratga ko’ra, eng yaxshi takliflarni tanlash yoki tender natijalari bo’yicha 1 yildan 4 yilgacha bo’lgan muddatga hadli kelishuv tuzishi mumkinligi belgilanmoqda.

Qonun bilan tadbirkorlik subyektlariga qo’shimcha qulayliklar yaratish maqsadida elektron do’kon hamda auksion savdolarida zaxira g’olib bo’lish mumkinligi, agar g’olib tomonidan shartnoma tuzish rad etilgan hollarda ularga shartnoma tuzish taklifi berilishi ko’zda tutilmoqda.

Davlat xaridlari sohasida shikoyatlarni ko’rib chiqish bo’yicha komissiya faoliyatida manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ymaslik asoslari Qonunda aniq ko’rsatilmoqda.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi davlat xaridlari tizimini takomillashtirish orqali ochiqlik va shaffoflik ta’milanishiga, sohada raqobat muhitining yana-da kuchaytirilishiga, davlat buyurtmachilar uchun qulay imkoniyatlar yaratilishiga hamda davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlarni keng jalb qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi

Davlat xaridlari tizimi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o’rganishga xizmat qiladi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bu sohada erishilgan ilmiy natijalar va yondashuvlarni taqqoslash davlat xaridlarini takomillashtirish bo’yicha umumiyligida xulosalarga kelish imkonini beradi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari, xususan, N.A. Akimov, S. Kapnauxova, va G.I. Maptynenko kabi tadqiqotchilarning ishlari davlat xaridlarini shaffoflik, raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlik jihatidan tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu olimlar elektron davlat xaridlari tizimi korrupsiyani kamaytirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar. Misol uchun:

- V.A. Knysha va E.V. Shadrina: Elektron xarid tizimlarining joriy etilishi davlat xaridlaridagi korrupsiya xavfini kamaytirib, byudjet mablag’larining samarali sarflanishini ta’minlaydi. Ularning tadqiqotlari davlat xaridlarida texnologik infratuzilmani rivojlantirishning muhimligini tasdiqlaydi.

• Yu.A. Tixomirova: Davlat xaridlari tizimida xalqaro standartlarni qo'llash va tender jarayonlarida raqobatni oshirish bo'yicha yondashuvlarni o'rgangan.

• B.A. Paizberg: Ijtimoiy mezonlarni davlat xaridlari tizimini shundan iboratki, davlat xaridlari innovatsion yondashuvlarni joriy etish tizim samaradorligini oshiradi va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarning umumiyligi xulosasi shundan iboratki, davlat xaridlari innovatsion yondashuvlarni joriy etish tizim samaradorligini oshiradi va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar, jumladan, A.A. Alimov, G.G. Nazarova, va N.X. Jumaev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O'zbekiston davlat xaridlari tizimini o'ziga xos xususiyatlari bilan o'rganishga qaratilgan. Ularning ilmiy ishlari quyidagi jihatlarni ta'kidlaydi:

• A.A. Alimov: O'zbekistonda davlat xaridlarini tashkil etishda shaffoflikni ta'minlash va raqamli texnologiyalarni joriy qilish masalalarini tahlil qilgan.

• E.X. Maxmudov: Tender jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zaruriyatini ta'kidlagan.

• M.F. Ochilov: Davlat xaridlari jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun elektron tizimlarning ahamiyatiga urg'u beradi.

Shuningdek, mamlakatimizda davlat xaridlari boshqarish sohasida so'nggi islohotlar, jumladan, "Ochiq byudjet" tizimi va davlat xaridlaring yagona axborot tizimining ishga tushirilishi mahalliy ilmiy ishlarda chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat xaridlari tizimidagi asosiy muammolar quyidagicha:

- Korrupsiya xavfi va shaffoflikning yetarli emasligi.
- Elektron tizimlardan foydalanish darajasining pastligi.
- Normativ-huquqiy bazaning doimiy takomillashtirishni talab qilishi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, elektron davlat xaridlari tizimini takomillashtirish eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Misol uchun, xalqaro tajriba O'zbekistonga raqamli texnologiyalarni kengroq qo'llash va korrupsiyani kamaytirish bo'yicha samarali strategiyalarni qabul qilishga yordam beradi.

Yuqorida tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari isloh qilish jarayonida xorijiy tajribadan unumli foydalanish va milliy xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bu yondashuv mamlakatimiz davlat xaridlari tizimini yanada samarali va shaffof qilishga xizmat qiladi.

Xulosa

Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Davlat xaridlari tizimining samaradorligi: Shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirish uchun zamонавиъи texnologiyalarga asoslangan

elektron xarid tizimlari muhim o‘rin tutadi. Bu nafaqat mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni rivojlantiradi.

2. Amaldagi muammolar: O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimida hali ham shaffoflikning yetarli emasligi, korrupsiya xavfi va tender jarayonlarida ishtirok etuvchilar o‘rtasida raqobat darajasining pastligi kuzatilmogda.

3. Dunyo tajribasi: Xalqaro tajribani, xususan, elektron xarid tizimlari va ekologik mezonlarni davlat xaridlariga joriy qilish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarni qo’llash mamlakatimizda ushbu tizimni takomillashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot savollari o‘z javobini topdi. Ushbu jarayon davomida xorijiy va milliy tajriba tahlil qilinib, amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqildi.

1. Elektron davlat xaridlari tizimini kengaytirish: Xarid jarayonlarini to‘liq raqamillashtirish orqali tender va tanlov jarayonlarida shaffoflikni oshirish lozim. Bu korrupsiyani kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

2. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Davlat xaridlarida xalqaro standartlarni joriy qilish uchun qonunchilikni yanada rivojlantirish kerak. Ayniqsa, ekologik va ijtimoiy mezonlarni xarid jarayonlariga kiritish lozim.

3. Tahlil va monitoring tizimini kuchaytirish: Davlat xaridlari faoliyatini baholash va nazorat qilish tizimini mustahkamlash orqali korrupsiya xavfini kamaytirish hamda tender jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish: Davlat xaridlari tizimida ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish uchun maxsus trening va kurslarni yo‘lga qo‘yish zarur.

5. Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish: Sun’iy intellekt va “blockchain” texnologiyalaridan foydalanish orqali xarid jarayonlarini yanada shaffof qilish mumkin.

Ushbu xulosa va takliflar davlat xaridlarini shaffof, samarali va adolatli tizim sifatida takomillashtirishga hissa qo’shami va ushbu sohadagi kelgusidagi tadqiqotlar uchun yo‘nalish belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Мясникова Л.А. Тюрина К.А. «Современные инструменты повышения эффективности системы государственных закупок» Вестник Пермского университета, Экономика. Вып. 3(30). С.132.

2. A. Akramov. Davlat xaridlarini samarali tashkil etishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari. “Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistik tizimni yanada takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami T.TMI: “Iqtisodiyot-moliya”, 2022 y- B 73-77.

3. Миэко Игараси. Докторские диссертации в NTNU, 2018:223. На пути

к более эффективным зеленым государственным закупкам. Эмпирические и концептуальные исследования экологических критериев в принятии решений и обработке информации. Норвежский университет науки и технологий, факультет экономики и менеджмента, кафедра промышленной экономики и технологического менеджмента.

4. www.tenders.gov.au/event=public.reports.list site.
5. www.finance.gov.au site.
6. The Korean Public Procurement Service: Innovation for effectiveness sayti
7. Information of the State Procurement Service (RRS) of the Republic of Korea. www.publicprocurement.kr website.
8. Budget Code of the Republic of Uzbekistan // National database of legislative information, 04/21/2021, No. 03/21/683/0375
9. U. O'roqov. Davlat xaridlari. O'quv qo'llanma. T.: "Nihol chop" OK, 2022 y.
10. Самолысов П.В., Булгакова М.А. Контрактная система в сфере государственных закупок в России: учебник. – М.: Академия управления МВД России, 2020. – 302 с.
11. A. Akramov. Davlat xaridlarda dastlabki narxlarni pasaytirish mexanizmi orqali auktsionlar o'tkazish tahlili. "Biznes-ekspert" jurnali, 3-son. – Toshkent, 2022. – B.69-77.
12. Akramov. Davlat xaridlari tizimida byudjet mablag'lari samaradorligini oshirish. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali, 1-son. - Toshkent, 2021. - 26-bet
13. Baymuradov Sh. Davlat xaridlarda elektron tijoratdan foydalanish samaradorligi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil- b 73-77.
14. N. Haydarov, Ch. Ro'zimurodova, O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlarini nazorat qilish tizimi. Fan va ta'lim ilmiy jurnali 2023 -b 708-713.
15. Фрыгин А. В., Седова М. В. Контрактная система: развитие финансового межгосударственных и муниципальных закупок: Монография,-2-е изд. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2018. – 226 с.
16. Загорский И.О., Ланюгова А.Е., Якунин Д.В. Система закупок 2020: учеб. пособие. Тихоокеанский государственный университет Хабаровский государственный университет: Изд-во Тихоокеан. Мистер Мука, 2020. – 349 с.
17. www.lex.uz (national database of information on laws and regulations of the Republic of Uzbekistan)

CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C
TAN DEMOGRAPHY ATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IN
HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUC
CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANC
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C
TANCY HEALTH STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND
DEX 2024
NANCY
LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
HUMAN CAPITAL

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy maktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz